


~~Oz 401.4
0 68~~

MADINA ORIPOVA

Gipsli shakllarning chizmatasviri



Kitob shu erda ko'satilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____

V

28641

0'z
701.4
0-68

O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY
RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI

MADINA ORIPOVA



GIPSLI SHAKLLARNING
CHIZMATASVIRI

Metodik qo'llanma



K. Behzod nomidagi Milliy Rassomlik va Dizayn Instituti
AXBOROT RESURS
Nr. 28641

TOSHKENT
«CHASHMA PRINT»
2011

Mazkur metodik qo'llanma Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Ilmiy Kengashi tomonidan 2011 yil 7 yanvardagi 5-sonli qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

Ushbu qo'llanma tasviriy san'atning chizmatasvir yo'nalishi bo'yicha kechadigan barcha jarayonlarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, unda chizmatasvir chizish uchun ishlataladigan ashyolar, tasvirni qog'ozga kompozitsiya asosida joylash, proporsiyalar, yorug' va soyalar, shuningdek, chizmatasvirda geometrik jismlar, gipsdan yasalgan odam bosh qismlari, naturmort haqida zarur ma'lumotlar berilgan.

Mazkur metodik qo'llanma chizmatasvir fani o'qitiladigan barcha o'quv yurtlari va san'at maktablari o'qituvchilari, talabalari, havaskor rassomlar va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljalangan.

Taqrizchilar:

K.Behzod nomidagi MRDI Mahobatli rangtasvir kafedrasи professori **R.A.Xudoyberganov**

Respublika rassomlik kollejining rangtasvir kafedrasи o'qituvchisi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining kumush medali sovrindori **Z.Islomshikov**.

ISBN 978-9943-350-55-7

© M.Oripova, 2011

© «HASHMA PRINT» MCHJ nashriyoti, 2011

KIRISH

Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk, qobiliyatli va irodali farzandlari bilan jahonni qoyil qilishi lozim.

ISLOM KARIMOV

Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'atsiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek rassomlarining hozirgi kunda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritayotgani, bu sohaga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat beradi.

Yosh ijodkorlarni tarbiyalash bo'yicha zarur nazarriy va o'quv-metodik bazani shakllantirish, bugungi kun talablariga javob beradigan mutaxassislarini tayyorlash yuzasidan amaliy ishlarni keng yo'lga qo'yish va bu muammolarni yechish imkonini berishi shubhaisizdir.

Milliy san'atimizga bo'lgan ehtiyoj va o'sib kelayotgan yosh iste'dodlarni tarbiyalash, ularni voyaga yetkazish shu kunining dolzarb masalalaridan biridir. Buning uchun yuksak badiiy mahorat bilan bir qatorda milliy tafakkur va salohiyatga ega bo'lgan iste'dodli yoshlarni tarbiyalash, ularni qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratmog'imiz lozim. San'at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo'l topish haqida so'z yuritar ekanmiz, har bir iste'dod egasi o'ziga xos bir olam ekanligini,

shu sababli ijod ahlini boshqarishga urinish mumkin emasligini unutmasligimiz kerak.

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlab o'tilganidek, talaba va o'quvchilar, o'qituvchilar hamda yosh rassomlar uchun qo'llanmalarni yaratish asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lmos'i lozim.

Tasviriy san'at sohasi ijodkordan katta bilim va mahoratni talab qiladi. Bilamizki, tasviriy san'atda juda ko'p yo'nalishlar mavjud bo'lib, mazkur qo'llanma tasviriy san'atning asosiy poydevori bo'lgan chizmatasvir, uning turlari bilan tanishtiriladi. Chizmatasvirda perspektivaning qo'llanilishi, komponovka (qog'ozga joylash), proporsiya (o'lchamlar), konstruktiv qurish, tusda ishslash, shtrixlar bilan ishslash, chizmatasvir texnologiyalari, qog'oz, qalam, ko'mir, sous, sangina, retushlar, detallar ustida ishslash haqidagi umumiy tushunchalar berib boriladi .

Tasviriy san'at insoniyat tarixida juda katta ahamiyatga ega ekanligini yaxshi bilamiz. Insoniyat paydo bo'libdiki, uning hayotida tasviriy san'atning ilk belgilarini namoyon bo'lgan. Uzoq o'tmishda odamlar tog'u-toshlarga ilk suratlarni chiza boshlaganlar. Bunda ular asosan hayvonlarni, qushlarni, odamlarni va ko'pincha ovchilikka bag'ishlangan lavhalarni tasvirlashgan. Biz bilamizki, chizmatasvir nafaqat tasviriy san'atning, balki barcha turdag'i, arxitektura sohasi bo'ladimi yoki dizayn sohasi bo'ladimi, ushbu sohalarning asosiy negizi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham chizmatasvir barcha tasvirlarning asosi, ya'ni poydevoridir.

Shu bilan birga ushbu qo'llanmada hozirgi zamon tasviriy san'atida chizmatasvirlarni yaratish texnifikasi va ulardan to'g'ri foydalanish haqidagi qonun va

qoidalari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari, qo‘llanmada gipsdan ishlangan geometrik jismlar, odam yuzining qismlari, antik davr odamlari haykallarining namunalari ham o‘z aksini topgan. Bu kabi namunalar orqali chizish sir-asrorlarini o‘rgatish, tasviriy san’atga qiziqtirish orqali barkamol avlodni tarbiyalash ushbu qo‘llanmaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

CHIZMATASVIR HAQIDA MA’LUMOT

Chizmatasvir asosan kontur chiziqlar va shtrixlar yordamida qo‘lda bajariladigan grafik tasvir sirasiga kiradi. Chizmatasvir tasviriy san’atda plastik yechimlar, tuslar, yorug‘ va soyalar yordamida bajariladi. U asosan bir rangda, ba’zi hollarda ikki yoki uch rangda ham bajarilishi mumkin.

Tasviriy san’atda chizmatasvir grafitli qalamda shtrixlar berish yordamida amalga oshiriladi. Chizmatasvirlar asosan ilmiy-ko‘rgazmali, amaliy, badiiy va texnik xarakterda bo‘lib, tasviriy san’atda keng qo‘llaniladi.

Chizmatasvir rangtasvir asarlarini yaratishda, boshlang‘ich bosqichni va unda tasvirlanayotgan predmetlarning tashqi shaklini, hajmini hamda tasvirlanayotgan predmetlarning perspektivasi va bo‘sliqdagi joylashuvini tasvirlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Chizmatasvir mustaqil holda badiiy ijodiyotda grafika yo‘nalishining asosini tashkil etadi. Chizmatasvir orqali tasviriy san’atda grafikaning boshqa turlari qatorida gravyura, litografiya va shunga o‘xshash ko‘plab turlari ham rivojlangan.

Chizmatasvir chizish uslublari ishlanishiga qarab turli ko‘rinishlarda bo‘ladi. Ular chizmatasvir mav-

zusiga, janriga, texnik xarakteriga va bajarilishiga qarab bir-biridan farqlanadi. Chizmatasvirdan yuqorida aytib o'tganimizdek, dastgohli rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik asarlarida ham foydalaniladi. Yordamchi chizmatasvir, nabroskalar, etyudlar, eskitilar tasviri san'atda badiiy qiymatga egadir. Chizmatasvir arxitektura ko'rinishlarini tasvirlashda ham asosiy rol o'ynaydi. Chizmatasvirni bajarish texnologiyalari bo'yicha «quruq» va «suyuq» bo'yoqli ko'rinishlardan iborat bo'ladi.

Qadimda chizmatasvirning bunday «quruq» turi bilan ishlashda asosan ko'mirdan (ugol) foydalanilgan. Uyg'onish davri chizmatasvirida ko'mirdan tashqari Italiya qalami (qora bo'r) va sangina (qizil bo'r) kabi chizish ashyolari paydo bo'la boshlagan. XVI asrdan boshlab chizmatasvirda grafitdan, XVIII asr oxiriga kelib zamonaviy ko'rinishdagi usti yog'och qoplamlar bilan qoplangan qalamlardan foydalanila boshlandi. Suyuq bo'yoqli chizmatasvirlar esa asosan perolar yordamida ishlangan.

Bunday perolar qush patlaridan, temirdan va h.k. yasalgan. Perolardan tashqari chizmatasvirlar kistlar yordamida ham bajarilgan. Perolarda bajarilgan chizmatasvirlar esa ko'pincha tush, bistr, sepiya va siyohlar yordamida tasvirlangan.

Chizmatasvirda ishlatiladigan qog'oz ashyolar turli ko'rinishlarga ega bo'lган. Qadimda chizmatasvir ishlashda papirus, O'rta asrlarda esa pergament, keyinchalik esa maxsus tayyorlangan qog'oz ashyolaridan foydalanilgan. Uyg'onish davridan boshlab chizmatasvirni ishlashda Xitoyda ixtiro qilingan qog'ozlar ishlatila boshlangan. Bu qog'ozlar Yevropaga X-XII asrlarda kirib kelgan. Qadimda chizmatasvir ishslashdan oldin qog'ozlar yuza qismiga maxsus qoplama-

lar surtilgan va turli ranglar yordamida bo'yalgan. Bu kabi rangli qog'ozlarga asosan Italiya qalamlari, ko'mirlar yordamida ishlanib, so'ng yorug' tomonlari oq bo'r yoki oq bo'yoqlar orqali bo'rttirilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, chizmatasvir tasviriy san'atning ilk ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Qadimgi dunyo san'atida chizmatasvir tog'-u toshlarga va g'orlarga ishlangan bo'lib, ular hozirgi chizmatasvir namunalarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Bunday san'at asarlari asosan toshlarga, suyaklarga, loylarga turli mavzudagi ov sahnalari, qushlar, hayvonlar, turli mavjudotlar va odamlarning tasvirlari uchli asbob yordamida tirkash orqali tasvirlangan.

O'rta asrlarda chizmatasvir ko'pincha arxitekturada va ularning detallari hamda mahobatli, konturli tasvirlarini chizishda keng qo'llanilgan. Chizmatasvir asosan natura ishlash jarayonida rivojlanib boradi. Eskizlar, nabroskalar, qoramalar, etyudlar tasvirlash barobarida chizmatasvirning asosiy janrlari shakllanib boradi. Bular tarixiy janr kompozitsiyalari, manzara, portret va shunga o'xhash yo'nalishlardir. XV asrning ilk Uyg'onish davrida Leonardo da Vinci, Rafael Santi, Mikelanjelo, Adel Sarto kabi buyuk va mashhur rassomlar chizmatasvir va rangtasvir janridagi ko'plab asarlarni meros qilib qoldirganlar.


Bugungi kunda o'zbek rassomlari ham tasviriy san'atning chizmatasvir yo'nalishi bo'yicha samarali ijod qilib kelmoqdalar. B. Jalolov, J. Umarbekov, A. Ikromjonov, A. Mirzayev, A. Nur, S. Raxmetov, R. Xudayberganov, S. Abdullayev kabi rassomlar shular jumlasidandir.

CHIZMATASVIR QOG‘OZLARI HAQIDA

Chizmatasvirni chizishdan oldin unga to‘g‘ri kela-digan qog‘ozni tanlash zarur. Tez bajariladigan nabro-ska va qoralamalarни chizish uchun katta o‘lchamdagи qog‘ozlar shart emas. Ularni chizishda oddiy albom-dan ham foydalansa bo‘ladi (1-rasm).

Katta o‘lchamdagи va uzoq muddatli chizmatasvir-lar uchun albatta «vatman», «yarim vatman», hozirgi davrda esa «goznak» qog‘ozlaridan foydalaniladi. Buning uchun avvalo qog‘ozni planshetga tortish kerak bo‘ladi. Shoshilinch paytlarda qog‘ozni knop-ka yordamida planshetga mahkamlab ishslash ham mumkin, ammo bu yaxshi samara bermaydi. Shuning uchun qog‘ozni oldin suv bilan yaxshilab ho‘llab, qog‘oz o‘ziga kerakli suvni shimib olgach, uni planshetga chekkalarini bukkan holda, knopkalar yoki PVA yelimi bilan yopishtirish mumkin. Buning uc-hun qog‘ozni tortishdan oldin planshet o‘lchamidan bir oz kattaroq qilib kesib olinadi. Undan so‘ng qog‘oz tortilgan planshetni quritishimiz lozim. Bunday holda planshetni pechka oldiga yoki quyosh nurlari tikka tushayotgan joyga qo‘yish mumkin emas, chunki ortiqcha issiqlikdan qog‘oz tez quriydi. Natijada plan-shetga tortilgan qog‘oz burchaklari qattiq tortilib, to‘lqinsimon bo‘lib qoladi. Bu esa chizish jarayonida bir muncha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Bunday ahvol yuzaga kelmasligi uchun qog‘ozni asta-sekinlik bilan qurishini ta‘minlash lozim. Yaxshi tortilgan planshetdagi qog‘ozga chizmatasvir ishlari-ni bajarish ancha oson kechadi. Qog‘ozni planshetga



1-rasm

reykalar yordamida maxsus tayyorlangan moslama (stirator) bilan ham tortish mumkin. Buning uchun avvalo yuqorida ta’kidlab o’tilgan jarayonni takrorlab, planshet ustiga qo‘yilgan qog‘oz burchaklari to‘rtburchak shaklida kesilib, chekkalari bukilgan holda ustidan stirator yordamida planshetga kiydirildi. Stiratorning qulay tomoni shundaki, chizmatasvir yakunlangandan keyin uni yechib olish oson kechadi va tayyor chizmatasvirni kerakli joyga qo‘yib, keyingi chizmatasvir ishlariga tayyorgarlik ko‘rish mumkin.

QALAM


Tasviriy san'atda chizmatasvir, nabroska va qoral-amalarni chizishda «Konstruktor», «Orien», «Mayak» markali qalamlardan foydalaniadi. Qalamlarning si-fatlilik darajasi raqam va harflar bilan belgilanadi.

Masalan, «M», «2M», «3M» kabi raqam va harflar bilan belgilanib, bunda raqamlar soni ortgan sari qalamning yumshoqlik darajasi ham ortib boradi. Qattiq turdag'i qalamlar esa «T», «2T», «3T» kabi raqam va harflar bilan belgilanadi. Bunda ham raqamlar soni oshgan sari qalamning qattiqlik darajasi ortib bora-di.

Chizmatasvirni chizishda o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlar, ya'ni «TM», «M» kabi qalamlar bilan ish-lagan ma'qul. Undan keyin esa birmuncha yumshoq bo'lган «2M», «3M» kabi qalamlar orqali davom et-tirsa bo'ladi. Ijodiy-o'quv chizmatasvirlarni bajarish-da qog'ozning sifatlilik darajasiga qarab u yoki bu turdag'i qalamlardan foydalangan ma'qul.

Masalan, tez bajariladigan nabroska qoramalarni bajarishda asosan o'ta yumshoq turdag'i qalamlardan foydalanish qulay hisoblanadi. Vatman va yarim vat-manlarda bajariladigan uzoq muddatli chizmatasvirni chizishda va shtrixlash jarayonlarida esa «T» yoki «TM» raqamli qalamlarni ishlatgan ma'qul.

Qog'oz turlariga e'tibor beradigan bo'lsak, silliq qog'ozlarga yumshoq qalamlar bilan chizish qulaydir. Bir oz dag'al bo'lган qog'ozlarga esa o'rtacha yum-shoqlikdagi qalamlar bilan chizish tavsiya etiladi. Ko'rinishi g'adir-budur bo'lган vatman qog'ozlarga qalam bilan chizish va shtrix berish jarayoni ancha qiyin kechadi. Bunday qog'ozlarga chizilgan chiz-matasvir shtrixlari dag'al va uziq-uziq bo'lib ko'rindi.



2-rasm. Qalam ushslash usullari

Shuning uchun ham bunday navli vatmanlardan akvar el rangtasvirini ishlashda foydalanmagan ma'qul.

Chizmatasvir ishlashda tasvirdan ma'lum masofada turgan holda chizish tavsiya etiladi. Bu chizmatasvirni borligicha ko'rish hamda uning kamchilik va xatolarini tuzatib borish uchun qulaylik tug'diradi. Tez bajariladigan nabroska, qoralamalarni ishlashda va tasvirning ma'lum qismiga shtrixlar berishda qalamni uch qismidan birmuncha yuqorida ushlab chizish tavsiya etiladi (2-rasm). Bu esa ish jarayonida qalamni chizilayotgan chizmatasvir va nabroskaning u joyidan bu joyiga olib o'tishda qulay hisoblanadi. Qalamni oson va yaxshi ushslashning birdan bir yo'li qalamning uchli qismini barmoqlardan birmuncha uzoqlikda, ikkinchi qismini esa kaftlar orasida ushslash ma'quldir (3-rasm).

KO'MIR (ugol)

Chizmatasvir ishlashda qalam singari yog'ochlarni yoqish orqali tayyorlangan ko'mir ham juda katta ahamiyatga ega. Ko'mir asosan maxsus tayyorlangan bo'lib, dumaloq va cho'zinchoq ko'rinishda ishlatiladi.


Bunday ko‘mirlarni hatto o‘zimiz uy sharoitida ham tayyorlasak bo‘ladi.

Buning uchun qalam shaklida va uzunligida qirqilgan quruq shoxchalarini temir quti ichiga tikka qilib joylashtiramiz. Kesilgan shox qalamchalari qutidan uzun bo‘lmasligi kerak. Ular qutida siqilib turishi uchun temir qutini qum bilan to‘ldiramiz va qopqog‘ini yopamiz. Qopqoqni yopishdan oldin uning ustini teshamiz va teshikni ochiq qoldirgan holda og‘zini loy bilan suvaymiz.

Ana undan keyin qutini olovga qo‘yamiz. Qutining olovda qizishi natijasida ochiq qoldirgan teshikdan ichidagi qizib yonayotgan shoxchalaridan ajralgan gazlar chiqib ketadi. Quti teshigida zangori olov ko‘rinishi bilan uni olovdan olib, qopqog‘ini ochamiz. Quti sovigach, tayyor bo‘lgan ko‘mir qalamchalarini olamiz. Yumshoq va yaxshi ishqalanadigan ko‘mir chizmatasvir ishslashda juda muhim ahamiyatga egaadir.

Ko‘mir bilan nabroska va qoralamalarni ishslashdan tashqari, matoda (xolst) ham rangtasvirlarni yaratishdan oldingi chizmatasvir ishlarini bajarish mumkin. O‘ta yumshoq bo‘lgan ko‘mir chizmatasvida birmuncha qiynchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday hollarda ko‘mir qog‘oz yuzasiga yomon yopishadi va chizmatasvirni kir bo‘lishiga olib keladi. Buning uchun ayni vaqtida chizmatasvirni maxsus qotirgich qoplamlar bilan qotirish yoki ularni maxsus oynali ramkalarda saqlagan ma’qul. Ko‘mirda ishlangan chizmatasvirlarni spirt va kanifol aralashmasi orqali tayyorlangan uncha kuchli bo‘lmagan suyuqlik bilan ham qotirish mumkin.

Bunday suyuqliknini 10 gramm kanifolga 0,5 stakan spirt aralashtirib yoki 1 stakan suvgaga 10 gramm jela-



3-rasm. Chizmatasvir chizishda foydalaniladigan qalamlar

tin aralashtirgan holda tayyorlash mumkin. Tayyor chizmatasvirga suyuqlikni maxsusuv purkagichlaridan foydalangan holda chizilgan tasvirni polga yotqizib sepish mumkin.

Ko'mir ko'rinishidagi qalamlar «Retush» nomi bilan ham juda mashhurdir va sotuvda ko'p uchraydi. Oddiy ko'mirlardan farqli o'laroq, retush qalamlari kontrast va soya-yorug' tuslarni ishlashda qo'l keladi. O'ta zinch tayyorlangan ko'mirlar nafaqat dumaloq, balki to'rtburchak shaklida ham sotuvga chiqariladi.

SOUS

Sous yaltiroq folga qog'ozlariga o'ralgan dumaloq shakllarda qalamcha ko'rinishida bo'ladi. Sous o'ta yumshoq va uqalanuvchan bo'lganligi uchun chizmatasvir ishlash jarayonida o'ta ehtiyot bo'lish lozim. Sous orqali chizmatasvir ishlashda ehtiyot bo'linmasa, tasirni iflos qilib, qoraytirib yuborish mumkin. Shuning uchun sousni ishlatishda, asosan zinch qilib o'ralgan qalam shaklidagi bir yoki ikki tomoni ham uchli bo'lgan qo'l bola qog'oz «qalam»dan foydalilaniladi.

Bunday paytda sous oldin biror qog'oz ustida yaxshilab maydalanib olinadi. Undan keyin qo'l bola «qalam»ni qog'oz ustidagi sous kukuniga yaxshilab to'ydirib undan keyin ishlanayotgan chizmatasviring soya va yarim soya tomonlari sous yordamida tuslab olinadi hamda chizmatasvir ketma-ketlik asosida ishlanadi va nihoyasiga yetkaziladi. Agar sous suv bilan aralashtirilib mo'yqalam orqali ishlansa, u aksarelga yoki tush bilan ishlanadigan Xitoy grafik tasviriga o'xshab ketadi. Bu esa tasviriy san'atda «ho'l» yoki «namli» sous nomi bilan juda keng tarqalgan (4-rasm).

SANGINA

Sangina ham qotirilgan ko‘mir singari dumaloq yoki to‘rtburchak shaklda bo‘ladi. Uning chiroyli, tiniq, issiq rangi – qizil yoki qoramtiligiga jiggarrangi chizmatasvirda tirik odam boshi (portret), libosli yoki libossiz qomatlarni chizishda o‘ta muhim rol o‘ynaydi.

Sanginani chizmatasir chizish jarayonida ko‘mir va sous singari ishlatalish mumkin. Turli shtrixlarni chizishda va har xil tuslarni farqlashda sanginaning o‘rnini kattadir. Sanginani paxta yoki birorta yumshoq mato yordamida chizmatasvir yuziga surtish yoki ishqalab ishlatsa ham bo‘ladi. So‘ng sanginada bajarilgan chizmatasvirning ortiqcha joylarini o‘chirg‘ich yordamida o‘chirib to‘g‘rilash mumkin. Sanginada ishslash rassomdan ma’lum darajadagi mahoratni talab etadi (5-rasm).



4-rasm



5-rasm


CHIZMATASVIRDA NATURMORT

Naturmort so‘zi fransuzchada «o‘lik tabiat tasviri» ma’nosini bildirib, tasviriy san’atda mustaqil janr hisoblanadi. Naturmort chizmatasvirini ishlash va yaratish hech narsaga tenglashtirib bo‘lmaydigan yuqori darajadagi «qo‘llanma» vazifasini o‘taydi. Naturmort rassomning oldiga chizmatasvirda juda muhim hisoblangan oddiylikdan murakkablikkacha bo‘lgan bosqichma-bosqich jarayonni va ko‘plab topshirqlarni ko‘ndalang qo‘yadi.

Naturmort chizishni o‘rganishda tasvirni oddiy narsalardan boshlagan ma’qul. Chizmatasvir jarayonida nafaqat tasvir va uning plastik yechimi, balki chizmaning qog‘oz yuzasidagi tasviri, konstruktiv tuzilishi hamda uni qog‘ozga joylashtirish kabi bir qancha jaryonlarni o‘rganish asosiy vazifalardan biridir. Buning uchun birinchi navbatda ish joyini va chizmatasvir ishlash jarayonini tashkil qila bilish kerak.

Chizmatasvirni sun’iy va tabiiy yorug‘likda ham chizish mumkin. Sun’iy yorug‘lik chizmatasvir ishslashda qulay hisoblanadi, chunki sun’iy yo‘naltirilgan yorug‘lik nuri buyumga tushayotganda doimiy yorug‘lik nurining o‘zgarmasligi saqlab qolinadi. Sun’iy yorug‘lik tasvirlanayotgan buyumga 45° burchak ostida tepadan bir oz yon tomonga yoki bir oz oldinga yorug‘lik nurlarini yo‘naltirish orqali bajariladi. Chizmatasvir chizishda shunday joyni tanlash kerakki, bir qarashda qo‘yilgan qo‘yilmani ham, chizilayotgan chizmatasvirni ham ko‘rish mumkin bo‘lsin.

Kichik masofadagi model va uning uch karra o‘lchami hamda ko‘z bilan chizmatasvir orasidagi ma-



sofa qo'l cho'zganda yetadigan uzoqlikda bo'lishi kerak. Bunday jarayon nafaqat chizmatasvirni ko'rish, balki modelni ham butunligicha ko'rishni ta'minlaydi. Buning uchun esa avvalo, qalam ushlashni o'rganish lozim. Qalamni shunday ushslash kerakki, ish jaramida chizmatasvir iflos bo'lib ketmasin.


Naturadan chizishda birinchi navbatda, o'quvchirassomdan tasvirlanayotgan buyumni qog'oz yuzasiga to'g'ri joylashtirish talab qilinadi (6-rasm).

Buyumni qog'oz yuzasiga to'g'ri joylashtirib bo'lgandan keyin, uning asosiy qismini chizishga kirishiladi. Yuqorida qarab chizish paytida uning tayanch nuqtasini va joylashgan yuzada qanday tur-ganini aniqlash qiyin bo'ladi. Naturmort chizayotgan talaba naturani tepadan yoki pastdan ko'radi. Ba'zi hollarda shunday ko'rinish ham bo'lishi mumkinki, ufq chizig'i naturmorda tasvirlanayotgan buyum-larning o'rtaсидан «kesib» o'tadi. Ko'p hollarda chiz-matasvir qo'yilgan naturadan kichikroq o'chamda ham tasvirlanadi.

Bunday vaqtida chizmatasvir chizayotgan talaba naturmortdagi buyumlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarni va ularning qismlarini to'g'ri taqqoslashga o'rghanishi muhimdir. Chizmatasvirdagi buyumlarning kichraytirilgan o'chamlari qo'yilmadagi naturaning asosiy masshtabi deb aytiladi.

Aniq mashtab bu chizmatasvirdagi buyumlarning to'g'ri proporsiyasidir. Chizmatasvir ishslashda ikkita asosiy qoida mavjud.

Bulardan birinchisi, naturadagi buyumlarning bir-biriga bo'lgan munosabatini aniq ko'rsatishdir. Bunday vaqtida talaba chizmatasvir ishslash jarayonida doimo buyumlarni bir-biriga taq qoslashi hamda naturaning yorug'-soya munosabatlariga katta e'tibor qaratishi lozim.



6-rasm

Ikkinchisi, chizilayotgan naturani ishslash paytida «umumiyligidan yaqollikka»cha bo'lgan jarayonga e'tibor qaratishi kerak. Bu jarayon chizmatasvirning boshschanish bosqichi orqali har bir buyumning xarakteri va ularning barcha qismlarini alohida-alohida ish-lash bilan bir qatorda uni tugal darajaga yetkazishdan iboratdir. Uquvsiz talaba esa naturani qismlarga bo'lib alohida ko'chirishga harakat qiladi. Masalan, bunday talaba choynak tasvirini chizayotib, ishni uning jo'mragidan, undan keyin esa qopqog'i va ushlagrichidan chiza boshlaydi. Bu talabaning tasvirlanayotgan choynakning umumiyligi ko'rinishi, shakli va hajmini his qila olmasligini ko'rsatadi. Buning uchun




birinchi navbatda, tasvirlanayotgan buyumning umumiyo‘ ko‘rinishi, hajmi, shakli va xarakterini keyinchalik esa uning qismlarini o‘rganishga harakat qilmoq kerak.

Aytaylik, olma tasvirini chizishda avvalo uning umumiyo‘ tashqi ko‘rinishi, undan keyin olmaning shaklini, hajmini va qismlarini chizish to‘g‘ri bo‘ladi. Oddiy buyumlar ko‘rinishini amaliyotda o‘rganish bilan bir qatorda ularni aniq yoritilgan sharoitlarda va turli kengliklarda joylashtirish uchun asosan geometrik shakldagi buyumlar yoki ko‘rinishi va tuzilishi bir-biriga yaqin bo‘lgan (shar-koptok, kub-yashik, silindr-chelak kabi) jismlardan foydalanish mumkin. Ularni chizishdan asosiy maqsad buyumlarning konstruktiv qurilishi va ularning proporsiyalarini to‘g‘ri topishidan iboratdir.

Naturmort chizishda konstruktiv qurish orqali qo‘yilmadagi buyumlarning nafaqat tashqi ko‘rinishi, balki ularning bizga ko‘rinmaydigan ichki chiziqlari ham talabaning his qilish qobiliyatiga tayangan holda tasvirlanadi.

Masalan, ko‘za tasvirini chizishda, uni bor ko‘rinishini chizishdan tashqari, bizga ko‘rinmay turgan tag qismining aylanalarini butun holicha tasvirlab, ko‘rsatib o‘tish lozim. U yoki bu shakllarning qirralarini chizishdan oldin naturmordagi buyumlarning nafaqat sal o‘ngroqda, chaproqda yoki balanda, pastda joylashishini hamda buyumlarni qanchalik yaqinroq yoki uzoqroq ekanligini va ularni bir-biriga bo‘lgan munosabatlarini ham hisobga olish kerak (7-rasm).

Undan keyin esa buyumlardagi yorug‘-soyalarning joylashuvini o‘rganish lozim. Buyumlar yuzasidagi yorug‘likka qarama-qarshi yotgan soyalar soyalar shaxsiy soyalar deb ataladi.



7-rasm. Ko‘za rasmini chizish bosqichlari

Buyumlardan yorug‘lik orqali tekislikka tushayotgan soyalarn esa *tushuvchi soyalar* deb ataladi. Tekislikka tushayotgan yorug‘lik nurlari perpendikulyar ravishda bo‘lib, ular o‘ta kuchli yoritilgan eng

yorug‘ tuslarda bo‘ladi. Bir muncha xira yorug‘lik esa qaysidir buyumda aks etadi va tushayotgan yorug‘likni turli burchaklar ostida nurlanishini ta’minlaydi.


Bunda buyumlarning yoritilmagan qismi esa qora, ya’ni soya bo‘lib qolaveradi. Bunday paytda chizmatasvir chizuvchi yosh rassomlar oldida tus toifalari, yorug‘lik, yarimsoya, soya kabi tushunchalarni anglash va aks ettirish vazifasi turadi.

Geometrik jismlardan tuzilgan naturmort

Endi geometrik jismlardan tuzilgan naturmort chizishda amal qilinadigan qoidalarni o‘rganamiz. Bu jarayonni biz kub, shar, silindr kabi geometrik jismlardan tuzilgan naturmort misolida ko‘rib chiqamiz (8-rasm).

Yoritilgan kubning bizga ko‘rinib turgan uchta tomoni ushbu ko‘rinish nuqtasining turli burchak ostida yo‘naltirilgan teksliklarida yotadi. Bunda yuqori tekislik o‘ta yorug‘, yon tekislik esa sirpanuvchan nurlar bilan bir muncha kam yoritilgan bo‘lib, kubning uchinchi tomoni o‘ta qorong‘i, ya’ni soya ko‘rinishida aks etadi. Kubning perspektiva asosida aniq tuzilishi chegaralangan tekisliklarda yorug‘lik va soyalarning qonuniy o‘lchamlarida yorug‘liklarning joylashishi, chizmatasvirda kubning shaklini va yorug‘lik holatini belgilaydi.

Endi esa soyalarning bu kabi shakkarda, qiyshiq teksliklarda qanday joylashishini ko‘rib chiqamiz. Bunga misol qilib silindr va sharni olamiz. Bunda yuqorida aytib o‘tilgan kubdagidek yorug‘ va soya birdaniga «kesilib» to‘xtab qolmaydi, balki asta-sekinlik bilan yorug‘likdan soyaga o‘tish jarayonini kuzatish



8-rasm. Kub, shar va silindr shaklini chizish

mumkin. Silindr va sharda yorug‘lik va soyalar joylashishini kuzatar ekanmiz, ular orasidagi uncha katta bo‘lmagan, asta-sekinlik bilan o‘zgarib borayotgan yarim soyani ko‘rishimiz mumkin.


Kub qirrasiga yaqin turgan silindr yoki sharning soyadagi qismiga atrofda va orqada turgan teksliklardan tushayotgan yorug‘liklar ta’sirida refleksning paydo bo‘lishini kuzatamiz. Buyumning yaltiroq yuzasiga tushayotgan yorug‘lik manbaini akslantirayotgan eng kuchli yorug‘lik tasviriy san’atda blik deb yuritiladi. Bunday holatni chizmatasvir hamda naturadagi blikdan yorug‘likka asta-sekinlik bilan o‘tishi natijasida yoritilgan yuzadan yarim soyaga, undan keyin esa soyaga va refleksga o‘tishini kuzatamiz.

Yarim soya yorug‘lik asosida, refleks esa soyada


paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham soyadagi refleks yarim soyaga nisbatan qoramtilr bo‘ladi. Chizmatasvir jarayonida ularning yorug‘lik kuchini boshqa narsalar bilan adashtirmaslik kerak, bunday holatda chizmatasvirning asl mohiyati va ko‘rinishiga putur yetadi.

Yuqorida biz aytib o‘tgan yorug‘lik, soya, yarim soyalar o‘zlarining turli ko‘rinishdagi tuslariga ega bo‘ladilar. Ular shartli ravishda och yoki to‘q bo‘lishlari mumkin. Tasviriy san’atda tus katta ahamiyatga ega. Agar chizmatasvirda tusga ahamiyat berilmas ekan, unda naturmortdagi buyumlarni bir-biridan ajratish qiyin bo‘ladi.


Tus chegaralangan hajmli buyum shaklining yori-tileyotgan yuzasidagi yorug‘liklarning qanchaligiga qarab belgilanadi. Tushayotgan yorug‘likning yorqinlik yoki xiralik darajasi uning qanday burchak ostida



9-rasm. Gipsdan ishlangan gul naqshning bir qismi



10-rasm




11-rasm

tushishi qay darajada yorug'lik manbaining tekislik-dan uzoqlashishiga qarab belgilanadi (9,10,11-rasmalar).

Natura yuzasidagi yorug'lik munosabatlarini farqlashni chizmatasvirda ham aks ettira bilish lozim,

bu esa tusning o‘rnini belgilaydi. Gipsdan ishlangan geometrik shakldagi buyumlar chizishni davom etti-
rar ekanmiz, bu orqali ulardagi yorug‘-soyalar tas-
virini oddiy shakllardan boshlab bir muncha qiyin
bo‘lgan topshiriplarga, ya’ni gipsdan ishlangan gul
naqshining bir bo‘lagi – (rozetka)da davom ettiramiz.
Olgan bilim va tajribalarimizga tayangan holda bir
muncha murakkab buyumlar chizmatasvirini chizish-
ga kirishamiz.



12-rasm. Ko‘za rasmini chizish

Buning uchun avvalo chizayotgan buyumning qog'oz yuzasida to'g'ri joylashishiga, konstruktiv qurilishiga, proporsiyasiga katta e'tibor berishimiz lozim.


Agar yuqorida aytib o'tilgan ketma-ketlik qonunlariga rioya etmas ekanmiz yoki chizayotgan chizmatasvirimizga befarq qarar ekanmiz, u ko'rimsiz chizmatasvir bo'lib qolaveradi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, uquvsiz rassom loydan ishlangan ko'zaning ko'rinishini, ichki va tashqi tuzilishini his qilmay, uni to'g'ridan-to'g'ri «ko'chirish»ga urinadi. Bu esa chizmatasvirda hech qanday ma'no kasb etmaydi. Loydan ishlangan ko'zani tashqi ko'rinishi shar va silindrning shakliga o'xshab ketishini tushunib yetganimizdan keyingina biz uni oson yo'l bilan yoki naturani ko'z oldimizga keltirgan holda ham chizishimiz mumkin.

CHIZMATASVIRDA NATURMORTNI BOSQICHMA-BOSQICH BAJARISH

Chizmatasvir qonun-qoidalari o'rganar ekanmiz, naturmortni natura orqali chizishning bir qancha bosqichlarini ko'rib chiqamiz.


Masalan, bizning oldimizda geometrik shakllardan tuzilgan naturmort turibdi. Naturmort stol ustidagi bir parcha oq qog'oz ustida turgan silindr va kubdan tashkil topgan.



13-rasm

Birinchi bosqich


Birinchi bosqichda naturmortdagи buyum-larni qog'ozga qanday joylashtirish haqida o'ylab ko'rishimiz kerak, ya'ni ishni naturmortdagи buyum-larni qog'oz yuzasiga joylashtirishdan boshlashimiz lozim. Birinchi navbatda, naturmortdagи buyumlarni qanday turganini qog'ozga belgilab chiqishimiz kerak. Undan keyin naturmortdagи buyumlarning balandligi, eni va ularning bir-biriga bo'lgan katta-kichiklikdagi o'chamlari aniqlab olinadi. Naturmortdagи buyumlarini o'zaro taqqoslash orqali ularni katta yoki kichiklik darajasi aniqlanadi.



14-rasm. Naturmort. Birinchi bosqich

Ikkinchchi bosqich


Ikkinchchi bosqichda naturmortdagi buyumlarning ichki ko'rimishlariga asoslanib uning shakli va qiralarini konstruktiv tarzda qurib chiqamiz. Bunda naturmort ishlash uchun qo'yilgan buyumlarning perspektivasiغا ham e'tibor qaratishimiz kerak. Naturmordagi buyumlarning komponovkasi (qog'oz yuzasi-da joylashishi), proposiyalari, konstruktiv qurilishlari hamda perspektivalarining to'g'rilingiga ishonch hosil qilgandan so'ng buyumlarning soya tomonlariga yengil shtrixlar beriladi (15-rasm).



15-rasm. Naturmort. Ikkinchchi bosqich

Shtrix berishda uning nafis va bir tekisda chiqishiga e'tibor berishimiz kerak. Chizmatasvirda qo'yilma buyumlariga shtrixlarni nafis va chiroysi berish katta ahamiyatga egadir. Shtrixlarni quyidagi 16-rasmda ko'rsatilgan namunaga o'xshatib berish kerak.

Buyumning shakliga, tashqi ko'rimishiga va uning hajmiga qarab shtrix chiziqchalarini berish kerak bo'ladi. Buyumlarga shtrix berishda ularning rangidagi tuslarni e'tiborga olish kerak. Masalan, naturmortdagisut saqlanadigan ko'zанинг



16-rasm. Shtrix berish usullari

rangi qora nonga nisbatan ochroq yoki naturmort fo-nidagi mato (drapirova)ga nisbatan to'qroq tusda bo'lishi mumkin.

Uchinchi bosqich


Bu bosqichda biz asosan tasvirga shtrixlar berish ustida ishlaymiz. Yuqorida aytib o'tganimizdek, har bir buyumga shtrix berishda uning shaklini, tuzilishi ni va tashqi ko'rinishini yodda tutish lozim. Tasvirdagi buyumlarni shtrixlash jarayonida uning naturmort teklisligiga qanday joylashganiga ham diqqatimizni qaratamiz. Bu bilan natyurmordagi buyumlarning ko'p planligiga, ya'ni ketma-ketlikdagi joylashuviga va bu orqali uning perspektivasiga ham e'tibor qilgan bo'lamiz.

Chizmatasvirdagi buyumlarni ishlashda avvalo tushayotgan yorug'lik mabaini aniqlashimiz, undan keyin buyumlardan tushayotgan soyalar, yarim soya, tushuvchi soya, refleks va buyumlardagi yorug'lik nurlarining qaytayotgan aksi, ya'ni eng yorug' joy, ya'ni bliklariga diiqyatimizni qaratamiz. Bunda buyumlardagi yorug'likning soya tomon asta-sekinlik bilan o'tishi natijasida yarim soyaning paydo bo'lishi, undan keyin esa soya va reflekslearning joylashishini kuzatamiz.

Soyada joylashgan refleks yarim soyaga nisbatan to'q tusda bo'ladi. Refleks asosan buyumlarga atrofdagi buyumlardan tushadi.

Chizmatasvirding uchinchi bosqichidae tiborimizni ko'proq planlarga qaratamiz. Bunda uchinchi plan, ya'ni orqada turgan buyumlar va naturmort foniga matolarning taxamlariga shtrixlarni ikkinchi va birinchi plandagi buyumlarga nisbatan yengil, ochroq

qilib beramiz. Bu orqali ikkinchi plandagi buyumlarni bir muncha qismalarga ajratgan holda oldinga olib chiqamiz (17-rasm).




17-rasm. Naturmort. Uchinchi bosqich

Endi esa asosiy e'tiborimizni birinchi planga qaratamiz. Bunda ikkinchi va uchinchi planlardagi nisbatan oldingi plandagi narsalarga shtrixlar berishda ularning tuzilishi, shakli va xarakterlariga e'tiborimizni qaratamiz. Bu bilan chizmatasviri bosqicha-bosqich ishlash jarayonidagi uchinchi bosqichdan to'rtinchchi bosqichga o'tamiz.

To'rtinchchi bosqich

Uchta bosqichni bajargandan so'ng oxirgi hal qiluvchi to'rtinchchi bosqichga o'tamiz. Bunda biz naturmortdagi biringchi planga va buyumlarning qismlariga alohida diqqat qilishimiz lozim. Yakuniy bosqichda buyumlarning qismlarini aniq va yaqqol tasvirlash natijasida biringchi planga ko'proq e'tibor qaratamiz va so'nggi hal qiluvchi shtrixlarni beramiz (18-rasm).

Bunda biz qo'yilmadagi buyumlarning xarakteriga, ularning bir-biriga bo'lgan munosabatlariiga e'tibor qilgan holda ularni materialilik darajasiغا yetkazamiz. Ana undan kevin esa chizmatasvirda yo'l qo'ygan xatolarimiz ustida ishlab, ularni bartaraf etamiz va chizmatasvirni yakunlaymiz.



18-rasm. Naturmort. To'rtinchchi bosqich


GIPSDAN ISHLANGAN ODAM YUZINING QISMILARI

Gipsdan ishlangan odam boshini chizish uchun avvalo uming yuzidagi barcha qismlarni o'rganib chiqish kerak. Bunday qismlarni tasvirlashda asosan Uyg'onish davrining buyuk rassomi Mikelanjeloning Davidga bag'ishlab ishlagan haykalining yuz qismidan olingan namunalardan foydalanamiz. Yuzning asosiy qismlariga burun, ko'zlar, lablar va qulolqar kiradi. Ularning har biri murakkab tuzilishga ega bo'lib, odam qiyofasini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi qismlarni chizishda diqqat bilan har bir qism ko'rinishini sodda shakldan murakkab ko'rinishgacha olib bormoq kerak.


Gipsdan ishlangan burun

Burun odam yuzining harakatsiz qismi bo'lib, uning shakli ko'proq prizma ko'rinishiga o'xshab ketadi. Burunning ko'rinishi to'rt qismdan iborat bo'lib u oldi, ikki tomondagi burunning yotiqligi pallasi, ikkitita yon tomoni va burun teshikchalaridan iborat. Burunni chizishda prizmaning umumiy ko'rinishini ko'z oldimizga keltirgan holda, uni xuddi tirikday shaklini tasvirlashga harakat qilamiz. Burun tuzilishiga ko'raturli xil ko'rinishga ega, ya'ni uzun, kalta, nozik, enli, to'g'ri va usti bo'rtib chiqqan bo'ladi (19,20,21-rasmilar).

Burun tasvirini chizishda va uni qog'oz yuzasiga joylashtirishda yuzdagi chiziq burun pallalari va uning asosi o'rtaidan o'tadi. Bunday chiziqni burun uchidan o'tkazib bo'lmaydi chunki burun uchi uning asosidan pastda bo'ladi. Odam boshi yon tarafga burulganda burun uchi o'rta chiziqdan uzoqda joylashadi.



19-rasm




20-rasm

Gipsdan ishlangan burun shakllarining chizmatasvirini
chizish usullari



21-rasm



22-rasm

Gipsdan ishlangan burun shakllarining chizmatasvirini chizish usullari


Agar odam yuzi tepaga ko'tarilgan bo'lsa, burun uchi ko'zning ichki burchaklarigacha, burun pallari esa undan ham yuqoriga ko'tariladi (22-rasm). Burunni chizish vaqtida uning turli o'lcham tekisliklarida o'rta chiziqning joylashishiga va burun pallalarining oraliqlari hamda burun uchini yuzning boshqa qismlariga bo'lgan munosabatiga ham diqqat qilmoq kerak.

Gipsdan ishlangan ko'zlar


Ko'z odam yuzidagi harakatlanuvchi qism tarkibiga kiradi. Uni chizish vaqtida shakliga, tuzilishiga va xarakteriga juda katta e'tibor qilish kerak. Ko'zning anatomik tuzilishi va shakli ko'z chuqurligida joylashgan sharga o'xshaydi. Biz esa uni faqat yarmini ko'ramiz. Endigina chizishni o'rganayotganlar ko'z tasvirini chizishda ko'pgina xatoliklarga yo'l qo'yadilar va bunday paytda ular ko'zni burun qismiga yaqin joylashtiradilar. Biz ko'zni ko'z chuqurchasida joylashishini anglab yetishimiz kerak (23-rasm).

Ko'z tasvirini chizayotganda uning perspektivali






23-rasm.



24-rasm



25-rasm

Gipsdan ishlangan ko‘z shakllarining chizmatasvirini chizish usullari



qisqarishini, ko‘zning o‘rta chizig‘i qanday joylashishini (oldidan, yon tomondan ko‘tarilganda, tushganda va h.k.) aniqlashimiz lozim. Chizmatasvirni chizishga kirishishdan oldin ko‘z joyining chuqurligi, ko‘z yarim sharining o‘lchamlarini aniqlash kerak. Qovoqlar ma’lum qalnlikka ega bo‘lib, bunda pastki qovoqning qalnligi yorug‘, ustki qovoqning qalnligi esa soya bo‘ladi (24, 25-rasmlar). Bunday paytda ko‘zning hamma tomonini qora chiziq bilan aylantirib chizish noto‘g‘ri bo‘ladi.


Gipsdan ishlangan lablar

Lablar ham harakatlanuvchi qism bo‘lib, yuz mimikasida faol ishtirok etadi. Ularni tasvirlash paytda asosiy chiziqni labning o‘rtasidan o‘tkazish kerak. Agar portreti chizilayotgan odamning boshi 3/4 qismiga burilgan bo‘lsa, unda labning tuzilishi perspektiva ko‘rinishida bo‘ladi (26-rasm).

Lablar ko‘rinishi va tuzilishiga qarab turli xil bo‘lishi mumkin. Og‘iz tasviri ham chizmatasvirda turli ko‘rinishlarda aks etadi. Shuning uchun oldin uning xarakteri va tuzilishini aniqlab, so‘ng qog‘oz yuzasiga joylashtirish tavsiya etiladi. Labni chizishda uning tashqi ko‘rinishi chiziqlarini, shaklini, hajmini va tuzilishini oldin o‘ylab, his qilgan holda qog‘oz yuzasiga joylashtirish lozim.

Labning chizmatasvirini chizishda uning kattaligi, qiyaligi va bo‘rtib turganlik darajasini aniqlab olish kerak. Shundan so‘ng labning shaklini tasvirlash lozim bo‘ladi (27-rasm).


Gipsdan ishlangan quloqlar



26-rasm.


Quloq harakatsiz qism hisoblanib, tasvirini chizishda uning ovalsimon ekanligini e'tiborga olish lozim. Quloqlar ko'pincha burunning parallel ustki va pastki chizqlari orasida joylashadi. Oldin quloqning umumiy shaklini proporsiyalarini aniqlab, keyin umumiy qismlari o'chanib bir-biriga taqqoslangan holda chiziladi (28, 29-rasmlar).

Yuz qismlari chizmatasvirini chizib bo'lgandan keyin amaliy mashg'ulotlarni gipsdan ishlangan odam boshi haykali namunalarini chizish orqali davom ettiramiz. Bu esa chizmatasvirdan o'gan bilmlarimizni mustahkamlashga, yuz qismlarini o'rGANISH esa odam portretini chizish, u orqali inson tuzilishi va anatomiyanini tahlii qilishga o'rgatadi.




26-rasm.

27-rasm. Gipsdan ishlangan lab shakllarining chizmatasvirini chizish usullari



28-rasm.

Gipsdan ishlangan quloq shakllarining chizmatasvirini chizish usullari



29-rasm.

Gipsdan ishlangan lab shakllarining chizmatasvirini chizish usullari

GIPSDAN ISHLANGAN QIRQIMLI BOSH (obrubovka)

Chizmatasvirda odam boshi tasvirini chizish eng qiziqarli mashg'ulotlardan biridir. Xo'sh, biz nima uchun qirqimli bosh tasvirini chizamiz? Bilamizki, tirik odamning yuz tuzilishi turlicha ko'rinishdagi tekisliklarga ega. Biz esa ushbu hajm tekisliklarini o'rganish uchun gipsdan yasalgan qirqimli bosh foydalananamiz. Qirqimli boshdagi geometrik shakl tekisliklarini mukammal o'rganish bo'lg'usi rassomgainson qiyofasini yaratishda asosiy amaliyot jarayonini o'taydi.

Odam boshi tasvirini chizish umumlashtirilgan shakllar qoidalari asosida qirqimli bosh ko'rinishida chiziladi. Ko'pgina taniqli va buyuk rassomlar o'z asarlarini ushbu uslubdan foydalangan holda yaratganlar.

Endi mashg'ulotni bosh tasvirini chizishdan boshlaymiz. Odam boshini tasvirlash ham ma'lum qiyinchiliklarga ega jarayondir. Biz yaxshi bilamizki, odam boshini tasvirlash uchun ko'p qismlarni, tekisliklarni va turli ko'rinishdagi shakllarni tasvirlash lozim.

Shuning uchun ham bosh tasvirini chizishni o'zlashtirishda bir muncha sodda ko'rinishdagi soch, lab, ko'z hamda odam terisining ko'rinishidan qat'iy nazar, oq rangda bo'lgan odam boshini tasvirlashni o'rganish tavsiya etilgan. Bunda esa hamma shakllar va hajmlar oq rangda bo'lib, faqat tushayotgan soyalar, yarim soyalar, yorug'lik va reflekslarni ko'rishimiz mumkin.

Gipsdan ishlangan bosh ko'pgina qismlarga va tekisliklarga ega ekanligini yuqorida aytib o'tdik. Shu




sababli ham odam boshini tasvirlashda qirqimli boshdan foydalanamiz va uni o'rganib chiqamiz.

Endi qirqimli boshni har tomonlama, turli ko'rinishlarda tasvirlashga harakat qilamiz va uni kuzatgan holda, birinchi tekislik va shakllarning o'zgarishi hamda shakllarni bizdan uzoqlashishini, tushuvchi soyalar yoki shakllarga perspektivaning ta'sirini o'rganib chiqamiz.

Qirqimli bosh tasvirini chizishdagi asosiy bosqichlar:

Birinchi bosqich


Boshning proporsiyalarini to'g'ri tahlil qilgan holda kompozitsiyali ravishda qog'ozga joylashtiramiz (30-rasm).



30-rasm

Ikkinchchi bosqich


Bu bosqichda qismlarni belgilagan holda, ularning proporsiyalarini, qirqim teksliklarini, hajmlarini shtrixlar orqali tuslarga ajratib, shakl ko'rnishiga olib chiqamiz. Hajmlarni soyalar orqali bo'rttirish bilan birga keyinchalik, yarim soyalar va yorug'liklar ustida ishlashni davom ettiramiz (31-rasm).



31-rasm

Uchinchchi bosqich

Oxirgi bosqichda biz qirqimli boshdagi asosiy shakl va hajmlarni bo'rttirib ishlagandan so'ng undagi shakkllarni planlilik darajasini aniqlaymiz. Soya va yorug'lik o'rtasidagi kontrastlikni bir oz kuchaytirib, qirqimli bosh chizmatasvirini yordamchil fonda foydalananmagan holda yakunlashdan oldin uni yana bir bor ko'zdan kechiramiz va ishni tugallaymiz (32-rasm).



32-rasm

GIPSDAN ISHLANGAN ODAM BOSHI

Chizmatasvir fanidan amaliy mashg'ulotlar olib boriladigan o'quv yurtlariida gipsdan ishlangan odam boshi chizmatasvirini chizish va o'rghanish asosiy mashg'ulotlardan biri hisoblanadi. Talabalar gipsdan ishlangan odam boshini chizish orqali yuqori kurslarda tirik odam portreti va qomatimi chizishga o'rghanib boradi.

Bunda talabadan chizmatasvirni barcha qonun-qoidalarini o'rghanish va unga amal qilish talab ettiladi. Gipsdan ishlangan odam boshini chizish orqali talabalar tirik odam tasvirini chizishi va u orqali tasvirlanayotgan odamning tashqi hamda ichki go'zalligiga, hattoki uming qalb kechinmalarini tasvirlashga ham o'rghanib boradi.

Gipsdan ishlangan odam boshini chizishda talabalar ko'pincha, tirik odam bosh tuzilishi bilan


adashtirib qo'yishadi. Bunda odam boshi gipsdan ishlangaligini e'tiborga olmasdan, ko'pincha talabalar chizmatasvirni chizish paytida ko'zlarini tirik odamnikiga o'xshatib qo'yishadi.

Bu esa umuman noto'g'ri hisoblanadi, chunki gipsdan ishlangan odam boshi va uning qismlari, shakl va hajmlari ko'rinishi oq rangda bo'ladi. Gipsdan ishlangan boshning chizmatasvirida yuz qismida joylashgan barcha a'zolar aniq tasvirlangan bo'lib, uning xarakteri ochib berilishi kerak. Bosh shaklining o'ta qiyin hajmlari chizmatasvirda aniq va ketma-ketlik asosida bajarilishi boshning umumiy ko'rinishini saqlab qoladi.

Mohir pedagog, rassom P.P. Chistyakov o'z shogirdlariga shunday der edi: «Qanday ish bo'lishidan qat'iy nazar, u o'zining tartibi va qonun-qoidasiga ega, shuning uchun har qaysi ishni o'rtasidan yoki oxiridan emas, balki boshidan boshlash kerak».

Shunday ekan, chizmatasvir chizish paytida har bir ish o'z qoidalariga asosan boshidan boshlanmas ekan, bunday ish noaniqlikka va qiyinchilikka olib keladi. Avvalo uzoq muddat davom etadigan gipsdan ishlangan odam boshini chizishda oddiyroq ishlangan gipslardan boshlash kerak.

Masalan, Dorifer, Apoksiamen, Apallon, Antoniy va shunga o'xshagan antik davr haykallaridan foydalish mumkin. Undan keyin esa bir muncha qiyin, aniq shakl va xarakterga ega bo'lgan Gomer, Sokrat, Epikur, Volter kabi gipsdan ishlangan antik davr haykallarini tasvirlashga o'tgan ma'qul. Gipsdan ishlangan boshning qismlari va shunga o'xshash buyumlar, geometrik jismlarni ishlashdagi boshlang'ich vazifalar talabalar uchun amaliyot jarayonini o'taydi (33-34-rasmlar).



33-rasm



34-rasm

Bunday amaliyotlar orqali talabalar tirik odam portreti va uning bo'y baravar ko'rinishini tasvirlash bilan birga qomatning anatomiyasи, mushaklari, sklet suyaklari, bosh chanog'ining tuzilishlarini o'rganadilar.

TOPSHIRIQLAR DASTURI

1. O'quvchiga tasvirlanayotgan buyumlarning tekislik va kengliklariga tushayotgan yorug'liklar va ulardagi tuslarning xususiyatlarini bir-biriga aloqadorligini hisobga olishni tushuntirish;
2. Yosh rassomlarni chizmatasvir nazariyasi asoslari, perspektiva, yorug', yarim soyalar, reflekslar va soyalar nazariyasi hamda chizmatasvirning texnika va texnologiyasi bilan tanishtirib borish;
3. Kelajakdagi mustaqil ishlar asosini yaratish uchun yosh rassomlarga amaliy mashg'ulotlar asosida zaruriy bilimlar berish.

Chizmatasvir ishlashda amal qilinadigan qoidalar


1. Chizmatasvir ishlash oldidan tayyorgarlik ishlarni olib borish lozim.
2. Eng yorug' (blik) va boshlang'ich mashqlardagi tuslar haqida tushuncha berish zarur.
3. Yorug' va soya:
 - chizmatasvirdagi yorug' va soyalarning vazifalari;
 - tuslar;
 - tabiiy soyalar;
 - har xil plandagi soyalarning ta'siri haqida.
4. Chizmatasvir ishslash uchun:
 - kompozitsiyali joylashtirish;
 - konstruktiv qurish haqida tushuncha;
 - tusning ahamiyati haqida ma'lumotlar berish zarur.
5. Qismlarga ajratish (detalizatsiya).
6. Planlar ustida ishslash.
7. Ishni yakuniga yetkazish.
8. Amaliy ko'rsatmalar.

Mashg'ulot paytida

O'quvchi va talabalarning asosiy va yuqori darajadagi amaliy bilmlarga ega bo'lishlari uchun o'quv ustaxonasi kerakli yorug'lik va chizmatasvirda qo'llaniladigan ziar jihozlar bilan ta'minlanishi kerak.


Ishlatiladigan ashyolar

- har xil yumshoqlikdagi oddiy grafit qalamlar, ko'mir, sous, sangina;
- planshet, qog'oz, o'chirg'ich;
- chizmatasvir ishslash uchun dastgoh (molbert).




Chizmatasvir chizishda ishlatiladigan ashyolar


CHIZMATA SVIR ISHLARIDAN NAMUNALAR



35-rasm




36-rasm




37-rasm



37-rasm



38-rasm




39-rasm



40-rasm




41-rasm




42-rasm

43-rasm



43-rasm




44-rasm



45-rasm




46-rasm




47-rasm

1980-й.






48-rasm




49-rasm




50-rasm



51-rasm




52-rasm



53-rasm



54-rasm



55-rasm

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Barkamol avlod orzusi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti, 2000.
2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch – T.; Ma’naviyat, 2008.
3. Королёва В.А. Учебный рисунок. – М.: Изобразительное искусство, 1981.
4. Секачова А. В., Чуйкина А.М., Пименова Л.Г. Рисунок и живопись. – М.: Легкая и пищевая промышленность, 1983.
5. Смирнов Г.Б., Соловьев А.М. Начинающему художнику. – Л.: Художник РСФСР, 1962.
6. Тихонов С.В., Подресков В.Б. Рисунок. – М.: Стройиздат, 1983.
7. Школа изобразительного искусства (выпуск 2) – М.: Издательство Академии художеств, 1961.

MUNDARIJA

1. Kirish	3
2. Chizmatasvir haqida ma'lumot.....	5
3. Chizmatasvir qog'ozlari haqida	8
4. Qalam	10
5. Ko'mir (ugol)	11
6. Sous.....	14
7. Sangina	15
8. Chizmatasvirda naturmort	17
9. Geometrik jismlardan tuzilgan naturmort	22
10. Chizmatasvirda naturmortni bosqichma-bosqich bajarish	28
11. Gipsdan ishlangshan odam yuzining qismlari	35
12. Gipsdan ishlangan qirqimli bosh (obrubovka)..	42
13. Gipsdan ishlangan odam boshi.....	45
14. Topshiriqlar dasturi.....	47
15. Chizmatasvir ishlaridan namunalar.....	50

УДК:73(075)

ББК 85.13

О-68

Oripova, Madina

Gipsli shakllarning chizmatasviri: metodik qo'llanma / M.Oripova;
O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va
dizayn instituti. –T.: «Chashma Print». –72 b.

ISBN 978-9943-350-55-7

УДК:73(075)

ББК 85.13

MADINA ORIPOVA

GIPSLI SHAKLLARNING CHIZMATASVIRI

Metodik qo'llanma

Muharrir I.Tursunova

Texnik muharrir N.Niyozova

Rassom B. Haydarov

Musahhih S.Hamidova

Sahifalovchi G.Tolipova

Nashriyot litsenziyasi AI № 109. 15.07.2008 y.

Bosishga ruhsat etildi 02.05.2011 y. Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$.

SchoolBook garniturası. Shartli bosma tabog'i 4.19.

Nashr. hisob tabog'i 4,5. Buyurtma № 16.

Adadi 50 nusxa.

«CHASHMA PRINT» MCHJ nashriyoti.

Manzil: 100071. Toshkent sh., Komolon ko'chasi, 13.

«REABLE PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent, Furqat ko'chasi, 2-uy.

10600 =

ISBN:978-9943-350-55-7

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-350-55-7.

9 789943 350557